

Ahror Usmonov

"Bizga bahor begonadur"

Visit "[Bizga bahor begonadur](#)" on MotoLyrics.com

Bizga bahor begonadur borgan sari,
Ko'nglimiz ham vayronadur borgan sari.

Shodon, erib yurar edik avvallari,
Endi umr g'amxonadur borgan sari.

Tolibdimi yashamoqdan jismi jonim,
Tan ichra dard pinhonadur borgan sari.

Shifo so'rab, borsam manzil-makonlarga,
Topar joyim xilxonadur borgan sari.

Do'sti-yor ham yiroqlashib sekin-sekin,
Adivatlar xufyonadur borgan sari.

Izlanaman, yig'lanaman, ruhim qiyar,
Yolg'iz xudo hamxonadur borgan sari.

Shoshdan ketar bo'lsa, Chorsham borgan yeri,
Buxoroyu Farg'onadur borgan sari.

Bizga bahor begonadur borgan sari,
Ko'nglimiz ham vayronadur borgan sari...

Visit [Ahror Usmonov](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.